

BORIS PASTERNAK VA ABDULLA ORIPOV SHE'RLARINING TAHLILI

A. Babajanova ¹

Annotatsiya:

Tezisdan iste'dodli rus shoir Boris Pasternak va Abdulla Oripovlarning ilk ijod pallasidagi o'xshashliklar haqida fikr yuritilgan. Ilgari surilgan fikrlar aniq she'rlar tahlilida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: she'r, hayotsevarlik, o'xshashlik, lirik subyekt, badiiy-ijtimoiy g'oyalar, qiyosiy tahlil.

Ma'lumki, barcha shoirlarda haqiqiy lirik subyekt obrazi sekin-astalik bilan shakllanadi. "Har bir shoir singari u ham havaskorlik, izlanish bosqichini bosib o'tadi. Yulduzlar, tog'lar, kapalaklar haqida yozdi. Ulardan she'r izladi. Biroq u o'qish-o'rganishni tez bosib o'tdi, she'riyatning missiyasini, inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini juda erta angladi" [1, 391]. Abdulla Oripov ijodi haqida aytilgan ushbu fikr rus shoiri Boris Pasternak ijodiga ham mos keladi. Shoir ijodining dastlabki o'n yili davomida yaratgan she'rlarida lirik subyektning hissiy holatini keskin ochilmaydi, tabiatning sokin tasviri yoki turmushning oddiy oqimi fonida aks ettiriladi. Bunda lirik subyekt shaxs sifatida keskin ajralib turmaydi, yoki o'zining badiiy-ijtimoiy g'oyalari ochiq aytilmaydi. Masalan, shoirning «Sen bu rolning o'ynading shunday!» (Ты играла эту роль!) deb boshlanuvchi she'rini fikrimiz isboti sifatida tahlil etish mumkin:

Sen bu rolning o'ynading shunday!
Suflerligim unutdim butkul!
Birinchi bor yecholmaganda,
Ikkinchisin kuylashgan, alhol!
Bulut bo'ylab suzardi qayiq.
O'rilgan pichanli o'tlog'i yonida.
Shaldiragan shlyuz – qayiq burniday
Sen bu rolning o'ynading shunday...
Sen shunday! – o'ynading
rollar ichra eng yaxshi roling! [3,31]

Mazkur she'rda biz Boris Pasternakning hayrati, sahna asaridan ta'sirlanganini kuzatamiz. Bu esa undagi lirik subyektning ta'sirchan, tajribasiz ekanligiga ishora qiladi. Bunda lirik subyekt o'z munosabatini tabiat bilan uyg'unlikda, aniq tasavvur qilib ifodalaydi. Natijada she'rda lirik subyektda romantikaga biroz moyillik borligi ham kuzatiladi. Muhimi she'rda shoir ijtimoiy hayotdan nolish yoki biror keskin fikrlar aytishdan ko'ra, vaziyatni tavsiflashga intilgani yaqqolroq seziladi. Bu lirik subyektda hayotsevarlik, voqelikni teran idrok etish va tushunishga qiziqish kuchliroq ekani bilan izohlanadi.

Aynan shu xususiyat Abdulla Oripov she'riyatida ham uchraydi. Xususan, shoirning "Kapalak va men" nomli she'rida borliqdagi bitta detal-obrazga munosabati orqali hayotsevarlik, tabiatparvarlik g'oyalari aks ettiradi:

Kapalakning uchishin uzoq
Kuzatdim ham yurdim ortidan.
Qarshimizda g'unchalar porloq?
Miltirar shudring chaman sathidan.
Allaqanday kezib tinimsiz
Yig'dik rosa zavq atirlarin.
So'ngra baham ko'rdik ikkimiz,
Menga tegdi shu satrlarim. [2, 17]

Mazkur she'rda kapalak obrazi orqali lirik subyektning tabiatga oshnoligi, borliqning bir qismini o'rganishi aks ettirilgan. She'r barmoq vaznining 9 bo'g'inli turkumida yozilgan, 4+5 tarzda turoqlagan, har ikkala band bir hil – a-b-a-b tarzda qofiyalangan. O'qilishi nisbatan yengil bo'lib, murakkab metaforik ifodalar yo'q. Lekin she'rda lirik subyekt borliqqa qiziqish bilan, sinchkovlik bilan munosabatda bo'lgan. Natijada uning kapalak turmush tarzini yaxshi o'rgangani, kuzatuvchanligi ko'zga tashlanadi.

¹ Babajanova Aziza Rustamovna, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogik Universiteti, Rus tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Abdulla Oripov yana bir she'rida ham osmon, yulduz kabi detallar ham borki, ular badiiy matn mazmuniga teranroq kirish uchun belgi vazifasini bajaradi:

Deyman osmonlarning hiloli bo'lsam,
Hulkar va Zuhrosi bo'lgim keladi.
Shu go'zal o'lkamda kamolga to'lsam,
Porloq yulduzlarday kulgim keladi.
Yulduzlar, o bo'shliq, musaffo chiroy!
Sen ilhom gulida kumush shabnamday.
Ucharman siz bilan bir kun paydar-pay,
Osmon gumbazida bahsga tushganday. [2, 15]

Mazkur o'rinda birinchi galda she'rda lirik subektning hayotiy maqsadi, ijodiy dasturi ifodalangan deyish mumkin. Ammo undagi yulduz, xususan Hulkar, Zuhro yulduzlari badiiy belgi sifatida lirik subekt, ayni paytda, muallifning ham, ijodiy niyati, kelajakdagi yuksak niyatlariga belgi sifatida ishora qiladi. Ishora qiladi, deyishimizga sabab, hali kelajak noaniq, ammo umid bor. Shuning uchun unga yulduz badiiy belgi sifatida ishora bergan.

“Har bir shoir singari u ham havaskorlik, izlanish bosqichini bosib o'tdi. Yulduzlar, tog'lar, kapalaklar haqida yozdi. Ulardan she'r izladi. Biroq u o'qish-o'rganishni tez bosib o'tdi, she'riyatning missiyasini, inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini juda erta angladi”¹. Xususan, Abdulla Oripovning o'tgan asrning oltmishinchi yillari yozilgan she'rlarida lirik subyekt endi nisbatan qat'iyatli, aniq hayotiy maqsadga ega, hayotiy pozitsiyasini belgilab olgan shaxs sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Buni “Umr duch qilarkan kimga bir-birni” [2, 20] deb boshlanuvchi she'r tahlilida ko'rish mumkin:

Umr dush qilar kimga bir-birni
Tahlil etmoq darkor avval taqdirni.
Pahlavon emasman, ko'kni yer, yerni –
Osmon aylamoqni kutmagil mendan.

Keltirilgan she'riy bandeda lirik subyekt endi fasl boshida ko'rganimizga nisbatan donoroq, hayotni teran anglab, turmush haqida shaxsiy fikriga ega odamdek taassurot qoldiradi. Bunda XX asrda odamlar orasidagi o'zaro munosabatda samimiylikdan ko'ra, shaxsiy manfaatga ko'proq e'tibor berilayotganini ochib beradi. Bu ijtimoiy muammo jamiyatning ma'naviy qashshoqlashishga olib borishini yaxshi tushungan lirik subyekt o'zidan dunyoda amalga oshirishning imkoni bo'lmagan yumushni bajarishni kutayotgan odamga (balki yaqin do'stidir, ko'ngil odamidir) murojaat qiladi. Bu yerda birinchi galda, insonni inson sifatida tushunush talabi o'rta qiqadi. Lirik subyekt o'zi murojaat qilayotgan odamdan, meni qanday maqsadga erishish yoki biror muammoni hal etish vositasi emas, balki odam deb anglash, boricha qabul qilishni so'ragan. Chunki XX asr o'rtalariga kelib insonni tabiiy mavjud jonzot, deb emas, balki ijtimoiy mexanizm, ulkan mashinaning biror qismi sifatida ko'rish ustunlik qilar edi.

Demak har ikkala shoir ijodining ilk bosqichlarida hayotni kuzatish, borliqni teranroq idrok qilish va o'rganishga moyilligi bilan bir-biriga yaqin bo'lgan deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Asadova Chekhrangiz. (2023). *Preservation of Originality in the Translation of Emotional Sentences in the Speech of the Hero of the Work of Art. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(11), 93-98. Retrieved from <https://cajipc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/1054>
- [2]. Бегимкулов Д. Шеърятимиз юлдузи / Оripов, Абдулла. Танланган асарлар: 4 жилдлик. – Тошкент: Ф.фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 1-жилд. – Б. 390-429.
- [3]. Оripов, Абдулла. Танланган асарлар: 4 жилдлик. – Тошкент: Ф.фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 1-жилд. – 432 б.
- [4]. Пастернак Б. Стихотворения. Поэты. Переводы./ Сост.вступ.ст., и прим. Л.В.Озерова. – Москва: Правда, 1990. – 544 с.

¹ Бегимкулов Д. Шеърятимиз юлдузи / Оripов, Абдулла. Танланган асарлар: 4 жилдлик. – Тошкент: Ф.фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 1-жилд. – Б. 391 14 (390-429)